
QIDIRUVDAGI ALIMENTCHI QARZDOR TOPILDI VA QAMALDI



Qidiruvdagi alimentchi qarzdor topildi va qamaldi

Byuroning So'x tumani bo'limi ish yurituvda bo'lgan FIB Farg'ona tumanlararo sudining 06.04.2017 yilgi qaroriga ko'ra qarzdor X.A.dan undiruvchi S.S. foydasiga 1 nafar farzandining moddiy ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi ijro hujjati bo'yicha, davlat ijrochisi tomonidan qarzdor X.A. aliment qarzini to'lashi lozimligi haqida bir necha marta ogohlantirilgan.

Lekin, qarzdor aliment to'lashdan bo'yin tovlab yashash manzilini o'zgartirganligi sababli, 17.11.2022 yilda unga nisbatan qidiruv e'lon qilingan.

Byuroning qidiruv sho''basi tomonidan olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida qarzdor 15.02.2023 yilda Farg'ona shahrida ushlangan.

JIB So'x tumani sudining 15.02.2023 yilgi qaroriga asosan qarzdor X.A. 35.326.000 so'm aliment qarzini to'lashdan bo'yin tovlagani uchun 15 sutka qamoq jazosi tayinlandi.

MIB So'x tumani bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-02-20 15:58:18